



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI



BUXORO VILOYATIDAGI
KORXONA VA TASHKILOTLAR
DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2024- yil 1- sentabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va buniyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta’minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.


Jumladan, 2024-yil 1-sentabr holatiga viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 29 785 tani tashkil etdi (ulardan kichik korxona va mikrofirmalar 26 133 ta).

**Korxona va tashkilotlar to‘g‘risida umumiyl ma’lumotlar
*fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda.***

Faoliyat ko‘rsatayotgan



Ro‘yxatdan o‘tgan




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar
2024- yil yanvar-avgust holatiga ko'ra, birlikda



Yillar kesimida soni

| | |
|------|-------|
| 2024 | 3 793 |
| 2023 | 4 153 |
| 2022 | 3 081 |
| 2021 | 3 911 |
| 2020 | 3 596 |

**Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)**



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2024- yil yanvar-avgust holatiga ko'ra yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda 197 taga ko'payganligini ko'rish mumkin.

Hududlar kesimida

| | | | | | |
|--------------|-----|--------|-----------------|-----|--------|
| Buxoro sh. | 750 | 9,8 % | Shofirkon t. | 270 | 14,8 % |
| Romitan t. | 362 | 13,2 % | Kogon t. | 249 | 14,7 % |
| G'ijduvon t. | 317 | 10,4 % | Peshku t. | 248 | 14,6 % |
| Olot t. | 313 | 24,3 % | Qorako'l t. | 225 | 14,5 % |
| Jondor t. | 302 | 12,3 % | Kogon sh. | 103 | 9,9 % |
| Buxoro t. | 299 | 13,8 % | Qorovulbozor t. | 76 | 10,8 % |
| Vobkent t. | 279 | 14,7 % | | | |

2024- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Yillar kesimida soni

| | | |
|------|--|--------|
| 2024 | | 29 785 |
| 2023 | | 30 374 |
| 2022 | | 32 686 |
| 2021 | | 30 429 |
| 2020 | | 26 225 |



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

2024- yil 1- sentabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2020- yilning mos davriga (26 225 ta) nisbatan 3 560 taga ko'payganligini quyidagi sohalarda korxonalar sonining sezilarli o'sishi bilan ifodalash mumkin: savdo – 6 728 tadan 8 768 taga (o'sish 2 040 taga), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 2 893 tadan 3 259 taga (o'sish 366 taga), tashish va saqlash – 1 492 tadan 2 340 taga (o'sish 848 taga).

Hududlar kesimida

| | | | |
|--------------|-------|-----------------|-------|
| Buxoro sh. | 7 660 | Kogon t. | 1 696 |
| G'ijduvon t. | 3 061 | Peshku t. | 1 696 |
| Romitan t. | 2 741 | Qorako'l t. | 1 551 |
| Jondor t. | 2 465 | Olot t. | 1 286 |
| Buxoro t. | 2 161 | Kogon sh. | 1 043 |
| Vobkent t. | 1 897 | Qorovulbozor t. | 705 |
| Shofirkon t. | 1 823 | | |

2024- yil yanvar-avgust holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni




Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Sanoat



Qurilish




Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog‘liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo‘lmoxda. 2024-yil yanvar-avgust holatiga ko‘ra yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 3 700 ta bo‘lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 3 688 ta;
- yirik korxonalar 12 ta.

Hududlar kesimida

| | | | | | |
|--------------|------------|---------------|-----------------|------------|---------------|
| Buxoro sh. | 714 | 10,7 % | Shofirkon t. | 265 | 16,9 % |
| Romitan t. | 354 | 14,1 % | Peshku t. | 246 | 16,7 % |
| Olot t. | 310 | 27,8 % | Kogon t. | 245 | 15,8 % |
| G‘ijduvon t. | 308 | 11,3 % | Qorako‘l t. | 219 | 16,9 % |
| Jondor t. | 298 | 13,4 % | Kogon sh. | 100 | 11,0 % |
| Buxoro t. | 293 | 15,2 % | Qorovulbozor t. | 74 | 11,9 % |
| Vobkent t. | 274 | 16,2 % | | | |

2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)

Yillar kesimida soni

| | | |
|-------------|--|---------------|
| 2024 | | 26 300 |
| 2023 | | 26 985 |
| 2022 | | 29 267 |
| 2021 | | 27 100 |
| 2020 | | 22 983 |



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Boshqa turlar

Faoliyat ko‘rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024- yil 1- sentabr holatiga 26 300 taga yetib, 2020- yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 114,4 foizni tashkil etdi (3 317 ta). Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (umumiyl sonidagi ulushi) quyidagicha bo‘ldi: savdo – 33,3 foiz, sanoat – 14,6 foiz, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi – 12,2 foiz, qurilish – 8,9 foiz, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar – 8,1 foiz, tashish va saqlash – 8,9 foiz, axborot va aloqa – 1,2 foiz, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish – 2,8 foiz, boshqa turlari – 10,0 foiz.

Hududlar kesimida


| | | | |
|--------------|--------------|-----------------|--------------|
| Buxoro sh. | 6 690 | Kogon t. | 1 552 |
| G‘ijduvon t. | 2 720 | Peshku t. | 1 477 |
| Romitan t. | 2 514 | Qorako‘l t. | 1 294 |
| Jondor t. | 2 228 | Olot t. | 1 117 |
| Buxoro t. | 1 922 | Kogon sh. | 906 |
| Vobkent t. | 1 687 | Qorovulbozor t. | 623 |
| Shofirkon t. | 1 570 | | |

2024- yil yanvar-avgust holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni

| | | |
|-------------|---|--------------|
| 2024 |  | 3 688 |
| 2023 |  | 4 041 |
| 2022 |  | 2 976 |
| 2021 |  | 3 814 |
| 2020 |  | 3 516 |

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog‘liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining “sog‘lomligi”ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko‘rsatishi bo‘lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o‘zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko‘rsatkichidir.

Shunda, 2024- yil yanvar-avgust holatiga ko‘ra qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2023- yilning mos davriga nisbatan 496 tadan 921 taga (o‘sish 425 taga), sanoat – 586 tadan 651 taga (o‘sish 65 taga) ko‘paydi.

Hududlar kesimida

| | | | | | |
|--------------|------------|---------------|-----------------|------------|---------------|
| Buxoro sh. | 709 | 10,7 % | Shofirkon t. | 265 | 16,9 % |
| Romitan t. | 354 | 14,1 % | Peshku t. | 246 | 16,7 % |
| Olot t. | 310 | 27,9 % | Kogon t. | 245 | 15,9 % |
| G‘ijduvon t. | 302 | 11,2 % | Qorako‘l t. | 219 | 17,1 % |
| Jondor t. | 297 | 13,4 % | Kogon sh. | 100 | 11,2 % |
| Buxoro t. | 293 | 15,3 % | Qorovulbozor t. | 74 | 12,1 % |
| Vobkent t. | 274 | 16,3 % | | | |

2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)

Yillar kesimida soni

| | | |
|-------------|--|---------------|
| 2024 | | 26 133 |
| 2023 | | 26 823 |
| 2022 | | 29 121 |
| 2021 | | 26 958 |
| 2020 | | 22 822 |



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish



Axborot va aloqa



Sog‘liqni saqlash va
Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Boshqa turlar

Hududiy kesimda eng ko‘p kichik biznes subyektlari Buxoro shahrida (25,3 foiz), G‘ijduvon (10,3 foiz), Romitan (9,6 foiz), Jondor (8,5 foiz) va Buxoro (7,3 foiz) tumanlarida faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 60,0 foizdan ortig‘i faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ma’lumki ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg‘or faoliyat yuritmoqda.


Hududlar kesimida

| | | | |
|--------------|--------------|-----------------|--------------|
| Buxoro sh. | 6 629 | Kogon t. | 1 543 |
| G‘ijduvon t. | 2 698 | Peshku t. | 1 452 |
| Romitan t. | 2 504 | Qorako‘l t. | 1 283 |
| Jondor t. | 2 224 | Olot t. | 1 113 |
| Buxoro t. | 1 916 | Kogon sh. | 893 |
| Vobkent t. | 1 680 | Qorovulbozor t. | 613 |
| Shofirkon t. | 1 565 | | |

**Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
2024- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda**

Hududlar kesimida


| | |
|-----------------|------------|
| Romitan t. | 568 |
| Jondor t. | 376 |
| Kogon t. | 311 |
| Shofirkon t. | 270 |
| G'ijduvon t. | 267 |
| Buxoro t | 245 |
| Vobkent t. | 230 |
| Olot t. | 227 |
| Peshku t. | 210 |
| Qorovulbozor t. | 189 |
| Qorako'l t. | 188 |
| Buxoro sh. | 144 |
| Kogon sh. | 34 |



O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

Baliq ovlash va akvakultura



**O'rmonchilik va yog'och
tayyorlash**


**Dehqonchilik
va chorvachilik, ovchilik
va bu sohalarda xizmat
ko'rsatish**

2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida

| | |
|-----------------|------------|
| Buxoro sh. | 787 |
| G‘ijduvon t. | 453 |
| Jondor t. | 341 |
| Romitan t. | 329 |
| Vobkent t. | 294 |
| Kogon t | 269 |
| Buxoro t. | 269 |
| Shofirkon t. | 220 |
| Peshku t. | 204 |
| Olot t. | 187 |
| Qorako‘l t. | 185 |
| Kogon sh. | 148 |
| Qorovulbozor t. | 84 |

Yillar kesimida soni (birlikda)



Sanoat tarmog‘i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo‘lgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Sanoat korxonalarini soni jami korxona va tashkilotlarning 12,9 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 93,7 foizini ishlab chiqarish sanoati (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 92,4 foiz), 2,9 foizini tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (o‘tgan yilga nisbatan 88,1 foiz), 2,9 foizini suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish (o‘tgan yilga nisbatan 114,1 foiz) va 0,5 foizini elektr, gaz bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash (o‘tgan yilga nisbatan 95,0 foiz) tashkil etgan.

Ishlab chiqarish
sanoati

3 600

111

Tog‘-kon sanoati va
ochiq konlarni ishlash

Suv bilan ta’minlash,
kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig‘ish
va utilizatsiya qilish

113


20

Elektr, gaz, bug‘ bilan
ta’minlash va havoni
konditsiyalash

2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida

| | |
|-----------------|------------|
| Buxoro sh. | 757 |
| Romitan t. | 224 |
| Shofirkon t. | 189 |
| Jondor t. | 184 |
| Buxoro t. | 179 |
| Peshku t. | 160 |
| G‘ijduvon t. | 135 |
| Kogon t. | 135 |
| Qorako‘l t. | 97 |
| Vobkent t. | 96 |
| Kogon sh. | 93 |
| Olot t. | 70 |
| Qorovulbozor t. | 50 |




O‘zbekistonda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog‘i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo‘nalishlari bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo‘nalishi 50,4 foiz ulushni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 82,0 foizni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 22,3 foiz ulushni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 115,0 foizga ko‘paygan;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 27,3 foiz ulushni va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 91,0 foizni tashkil etdi.


529

Fuqarolik
obyektlarini qurish



646

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari



1 194


Bino va
inshootlar qurish



2024- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

| | |
|-----------------|--------------|
| Buxoro sh. | 2 197 |
| G'ijduvon t. | 1 073 |
| Romitan t. | 746 |
| Buxoro t. | 678 |
| Jondor t. | 646 |
| Qorako'l t. | 536 |
| Vobkent t. | 521 |
| Shofirkon t. | 505 |
| Peshku t. | 486 |
| Kogon t. | 452 |
| Olot t. | 407 |
| Kogon sh. | 343 |
| Qorovulbozor t. | 178 |



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxona savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,7 foizi yoki 8 744 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 60,9 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2023- yilning mos davri bilan solishtirilganda 93,8 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va motosikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 27,1 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 97,7 foizni tashkil etdi;
- avtomobil va motosikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 12,0 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 103,2 foizni tashkil etdi.

1 054

Avtomobil va motosikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

2 377

Avtomobil va motosikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


5 337

Avtomobil va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida

| | |
|-----------------|------------|
| Buxoro sh. | 836 |
| G‘ijduvon t. | 208 |
| Romitan t. | 148 |
| Vobkent t. | 141 |
| Jondor t. | 121 |
| Buxoro t. | 114 |
| Qorako‘l t. | 108 |
| Olot t. | 101 |
| Shofirkon t. | 88 |
| Kogon sh. | 82 |
| Peshku t. | 78 |
| Kogon t. | 68 |
| Qorovulbozor t. | 46 |



2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar o‘sish sur’ati 2020- yilning mos davriga nisbatan 105,6 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko‘rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko‘ngilochar parklar yashash bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024- yil 1-sentabr holatiga ko‘ra, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 17,4 foiz ulushini tashkil etdi;
- restoran va buyurtma bo‘yicha oziq- ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar yo‘nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasining 82,6 foiz ulushini tashkil etdi.

373

Yashash bo‘yicha xizmatlar

1 766

Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo‘yicha xizmatlar



2024- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida


| | |
|-----------------|------------|
| Buxoro sh. | 150 |
| Kogon sh. | 25 |
| Jondor t. | 22 |
| Vobkent t. | 21 |
| Shofirkon t. | 18 |
| G'ijduvon t. | 17 |
| Buxoro t. | 17 |
| Peshku t. | 15 |
| Romitan t. | 14 |
| Olot t | 13 |
| Qorako'l t. | 10 |
| Kogon t. | 10 |
| Qorovulbozor t. | 5 |



2024- yil 1-sentabr holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 19,3 foizini tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 104,8 foizni tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radio eshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 26,7 foizini tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 115,3 foizni tashkil etdi.


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxona va tashkilotlarning 54,0 foizini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 90,5 foizni tashkil etdi.



2024- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

| | |
|-----------------|------------|
| Buxoro sh. | 353 |
| G'ijduvon t. | 76 |
| Buxoro t. | 71 |
| Jondor t. | 47 |
| Shofirkon t. | 44 |
| Kogon sh. | 38 |
| Romitan t. | 37 |
| Vobkent t. | 34 |
| Peshku t. | 31 |
| Qorako'l t. | 30 |
| Kogon t. | 18 |
| Olot t. | 12 |
| Qorovulbozor t. | 8 |




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi – 726 ta yoki 90,9 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

96,7 foiz korxonalar sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri kelib, o'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan 103,5 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 2,1 foizni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 85,0 foizni tashkil etdi;


Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,2 foizini tashkil etib, o'sish sur'ati 81,8 foizni tashkil etdi;



2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida

| | |
|-----------------|------------|
| Buxoro sh. | 487 |
| Jondor t. | 344 |
| G‘ijduvon t. | 308 |
| Romitan t. | 306 |
| Vobkent t. | 237 |
| Buxoro t. | 166 |
| Shofirkon t. | 133 |
| Peshku t | 107 |
| Kogon t. | 105 |
| Kogon sh. | 54 |
| Olot t. | 36 |
| Qorako‘l t. | 35 |
| Qorovulbozor t. | 22 |



2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonaning 7,9 foiz ulushini tashkil etdi.

2023- yilning mos davri bilan solishtirganda tashish va saqlash xizmatlarining yo‘nalishlari bo‘yicha tahlillar shuni ko‘rsatdiki:

quruqlikdagi va quvur transporti yo‘nalishida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar o‘tgan yilga nisbatan 98,9 foizni tashkil etdi;

ombor xo‘jaligi va yordamchi transport yo‘nalishi o‘tgan yilga nisbatan 100,3 foizni; pochta va kuryerlik yo‘nalishi 91,7 foizni tashkil etdi;

havo transporti yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlar soni 200,0 foizni tashkil etdi.




Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy

shakli bo'yicha umumiy ma'lumot

2024- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

**Tadbirkorlik
subyektlari soni**

**Tadbirkorlik subyektlarining
jamiga nisbatan ulushi**



Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idolararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.


2024- yil yanvar-avgust holatiga ko‘ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Mas’uliyati cheklangan jamiyat – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta’sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta’sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo‘lingan xo‘jalik jamiyatni hisoblanadi. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog‘liq zararlar uchun o‘zлari qo‘shgan hissalari qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning o‘z hissasini to‘la qo‘shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo‘yicha har bir ishtirokchi hissasining to‘lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo‘ladilar.

Hududlar kesimida

| | | | | | |
|--------------|-----|--------|-----------------|-----|--------|
| Buxoro sh. | 659 | 12,3 % | Olot t. | 222 | 37,8 % |
| Romitan t. | 318 | 13,9 % | Kogon t. | 213 | 17,3 % |
| Jondor t. | 269 | 13,5 % | Shofirkon t. | 203 | 16,4 % |
| Buxoro t. | 247 | 17,0 % | Qorako‘l t. | 135 | 18,2 % |
| Vobkent t. | 239 | 19,1 % | Qorovulbozor t. | 68 | 12,1 % |
| Peshku t. | 237 | 18,7 % | Kogon sh. | 67 | 11,7 % |
| G‘ijduvon t. | 226 | 11,1 % | | | |

2024- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



2024- yil 1- sentabr holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan 26 300 ta tijorat korxona va tashkilotlarining 20 586 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar ulushiga to'g'ri keladi. Mazkur jamiyatlar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng keng tarqalgan shakli hisoblanadi.

Sohalar kesimi tahlili shuni ko'rsatdiki, eng yuqori ko'rsatkich savdo – 32,4 foiz, sanoat – 13,6 foiz, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida – 13,5 foiz, qurilishda – 10,4 foizni tashkil etdi.


Hududlar kesimida

| | | | |
|--------------|--------------|-----------------|--------------|
| Buxoro sh. | 5 372 | Shofirkon t. | 1 236 |
| Romitan t. | 2 281 | Kogon t. | 1 234 |
| G'ijduvon t. | 2 041 | Qorako'l t. | 740 |
| Jondor t. | 1 990 | Olot t. | 587 |
| Buxoro t. | 1 457 | Kogon sh. | 571 |
| Peshku t. | 1 267 | Qorovulbozor t. | 561 |
| Vobkent t. | 1 249 | | |

Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar


2024- yil yanvar-avgust holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Xususiy korxona – mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot deb e’tirof etiladi. Xususiy korxona tadbirdorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shaklidir.


Xususiy korxona o‘z mulkida alohida mol-mulkka ega bo‘ladi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘lishi hamda ularni amalga oshirishi, majburiyatlarni bajarishi, sudda da’vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

Hududlar kesimida

| | | | | | |
|-------------|----|--------|-----------------|---|-------|
| Qorako‘l t. | 62 | 17,9 % | G‘ijduvon t. | 5 | 2,3 % |
| Olot t. | 22 | 7,4 % | Vobkent t. | 1 | 1,0 % |
| Buxoro sh. | 14 | 2,1 % | Qorovulbozor t. | 1 | 5,9 % |
| Buxoro t. | 11 | 4,4 % | Romitan t. | 1 | 1,2 % |
| Kogon t. | 11 | 6,0 % | Jondor t. | 1 | 1,1 % |
| Kogon sh. | 7 | 5,0 % | | | |

2024- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni 2024- yil 1- sentabr holatiga 2 541 tani tashkil etdi. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiyl sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 44,4 foiz, sanoat – 12,4 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 9,9 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 5,2 foiz, qurilish – 6,8 foiz, sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 4,4 foiz, tashish va saqlash – 3,0 foiz, axborot va aloqa – 1,0 foiz, boshqa turlari – 12,9 foiz.


Hududlar kesimida

| | | | |
|--------------|-----|-----------------|-----|
| Buxoro sh. | 657 | Vobkent t. | 102 |
| Qorako'l t. | 347 | Jondor t. | 92 |
| Olot t. | 296 | Shofirkon t. | 88 |
| Buxoro t. | 252 | Romitan t. | 83 |
| G'ijduvon t. | 215 | Peshku t. | 68 |
| Kogon t. | 183 | Qorovulbozor t. | 17 |
| Kogon sh. | 141 | | |

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar to‘g‘risida ma’lumotlar


2024- yil yanvar-avgust holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat
ko‘rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Oilaviy korxona – uning ishtirokchilarini tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyorli asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo‘lgan umumiyl mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirdorlik subyektiidir.


Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilarini shaxsiy mehnatiga asoslanadi va tadbirdorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir.

Hududlar kesimida

| | | | | | |
|--------------|----|--------|-----------------|----|--------|
| G‘ijduvon t. | 77 | 16,9 % | Jondor t. | 28 | 20,9 % |
| Olot t. | 66 | 28,9 % | Kogon sh. | 26 | 14,3 % |
| Shofirkon t. | 61 | 25,7 % | Qorako‘l t. | 22 | 11,5 % |
| Buxoro sh. | 41 | 7,1 % | Kogon t. | 21 | 16,9 % |
| Buxoro t. | 35 | 17,9 % | Peshku t. | 9 | 6,7 % |
| Romitan t. | 35 | 25,4 % | Qorovulbozor t. | 5 | 13,9 % |
| Vobkent t. | 34 | 10,3 % | | | |

2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o‘sish sur’ati (foizda)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tib, 2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2020- yilning mos davriga nisbatan 484 taga ko‘paygan.

Bu esa quyidagi sohalardagi korxonalar: savdoda – 569 tadan 925 taga (o‘sish 356 taga), yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar – 656 tadan 753 taga (o‘sish 97 ta), sanoatda – 659 tadan 689 taga (o‘sish 30 taga) sonining sezilarli oshganligi bilan izohlanadi.


Hududlar kesimida

| | | | |
|--------------|-----|-----------------|-----|
| Buxoro sh. | 575 | Kogon sh. | 182 |
| G‘ijduvon t. | 455 | Romitan t. | 138 |
| Vobkent t. | 330 | Peshku t. | 135 |
| Shofirkon t. | 237 | Jondor t. | 134 |
| Olot t. | 228 | Kogon t. | 124 |
| Buxoro t. | 195 | Qorovulbozor t. | 36 |
| Qorako‘l t. | 192 | | |

**Yangi tashkil etilgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi
korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot**

2024- yil yanvar-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – korxonaning ustav jamg'armasida norezidentlar, chet el yuridik shaxslari (chet el firmalarining filial va bo'limnalari), chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar mulki ishtirokidagi korxonalar hisoblanadi.

Mamlakatimizda xalqaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan jadal ishlar natijasida, chet el investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining soni sezilarli darajada oshib borayotganligini ko'rshimiz mumkin.

Hududlar kesimida

| | | | |
|--------------|----|-----------------|---|
| Buxoro sh. | 38 | G'ijduvon t. | 3 |
| Kogon t. | 6 | Qorovulbozor t. | 2 |
| Shofirkon t. | 5 | Jondor t. | 2 |
| Buxoro t. | 5 | Vobkent t. | 2 |
| Olot t. | 4 | Kogon sh. | 1 |
| Qorako'l t. | 4 | Romitan t. | 1 |

2024- yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati (foizda)

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Keyingi besh yilda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 141,5 foizni tashkil etdi.

Yetakchi o'rinni 41 ta korxonada to'liq yoki qisman ulushi mavjud bo'lgan Rossiya Federatsiyasi egallagan. Bu viloyatda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiyligi sonining 12,0 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritayotgan Turkiya (ulushi 12,9 foiz), Xitoy (ulushi 14,7 foiz), Turkmaniston (ulushi 17,9 foiz) va Janubiy Koreya (ulushi 3,2 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanishadi.

Hududlar kesimida

| | | | |
|-------------|-----|-----------------|----|
| Buxoro sh. | 181 | G'ijduvon t. | 13 |
| Buxoro t. | 29 | Shofirkon t. | 12 |
| Kogon t. | 25 | Vobkent t. | 8 |
| Olot t. | 16 | Jondor t. | 7 |
| Kogon sh. | 13 | Qorovulbozor t. | 6 |
| Romitan t. | 13 | Peshku t. | 5 |
| Qorako'l t. | 13 | | |

2024- yil yanvar-avgust holatiga ko‘ra,
birlikda



O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish, xalqaro aloqalarni kengaytirish va to‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalari uchun qulay huquqiy muhit yaratish bo‘yicha keng qamrovli iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatning strategik geografik joylashuvi, boy va xilma-xil tabiiy resurslari o‘sish uchun ulkan imkoniyatlarni namoyon etadi. O‘zbekiston hukumati o‘z fuqarolarining farovonligini oshirish, biznesni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantirish maqsadida, chet el investitsiyalarini ko‘paytirishga ustuvor ahamiyat bermoqda.

2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda

| Davlatlar nomi | soni |
|----------------|------|
| Rossiya | 41 |
| Turkiya | 44 |
| Turkmaniston | 61 |
| Xitoy | 50 |
| Afg‘oniston | 20 |
| Eron | 15 |
| Koreya | 11 |
| AQSh | 8 |
| Tojikiston | 5 |
| Boshqalar | 86 |

O‘zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo‘nalishlariga e’tibor berish, qo‘shni davlatlar bilan yaxshi qo‘shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg‘araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo‘lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag‘batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalardan 140 tasi qo‘shma korxonalar, 201 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keldi.

2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda

xorijiy korxonalar

qo‘shma korxonalar

| | | |
|-----|----------------|----|
| 120 | Buxoro sh | 61 |
| 11 | Buxoro t | 18 |
| 12 | Kogon t | 13 |
| 6 | Kogon sh | 7 |
| 5 | G‘ijduvon t | 8 |
| 7 | Romitan t | 6 |
| 2 | Jondor t | 5 |
| 5 | Shofirkon t | 7 |
| 8 | Qorako‘l t | 5 |
| 3 | Vobkent t | 5 |
| 3 | Peshku t | 2 |
| 4 | Qorovulbozor t | 2 |
| 15 | Olot t | 1 |

2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra, birlikda



So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotni jadal o‘zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes va sarmoyaviy to‘siqlarni bartaraf etishda qat’iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko‘proq e’tirof etilmoqda.

Demak, chet el investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko‘payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog‘liq.

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma’lumotlardan iborat bo’lgan axborot-ma’lumotnomalar tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta’minlaydi.

Ro‘yxatga olingan – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestriga mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko‘rsatayotgan – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan hamda moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro‘yxatdan o‘tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma’lum bir davrda faoliyat ko‘rsatayotgan yuridik shaxslarning jami ro‘yxatdan o‘tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagи “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo‘limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma’lumotlar O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma’lumotlar bazasi asosida 2024- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so‘ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo‘yilgan.



Buxoro viloyat statistik registrlarni
yuritish bo‘limi
Tel.: (65) 223-83-20